

**ALISHER NAVOIYNING “ASHRAQAT MIN...” G‘AZALINING TAVSIFI
VA ARAB TILINING O‘RNI.**

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Filologiya va tillarni o‘qitish: arab tili
1-kurs talabasi Asatillayeva Xadicha Rauf qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va g‘azal an‘anasining sultoni Alisher Navoiyning “Ashraquat min...” nomli g‘azali ilmiy jihatdan tahlil qilinib, unda arab tilining qo‘llanishiga xos jihatlar o‘rganiladi. Mazkur g‘azal orifona (tavsifiy-falsafiy) turga mansub bo‘lib, unda shoirning falsafiy va tasavvufiy qarashlari chuqur hamda har tomonlama yoritilgan. Maqolada Alisher Navoiy g‘azalning badiiy ifodaviyligi va mazmuniy teranligini oshirish maqsadida arab tili unsurlaridan mohirona foydalangani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: yor, nisor, g‘ayr, sing‘an safol, devona, ibtido, zohid, nido...

Аннотация: В статье проводится научный анализ газели «Ashraquat min...» великого мыслителя и султана газельной традиции Алишера Навои, а также исследуются особенности использования арабского языка в данном произведении. Указанная газель относится к орифона (описательно-философскому) типу, в рамках которого философские и суфийские взгляды поэта раскрываются глубоко и всесторонне. В статье показано, что Алишер Навои мастерски использовал элементы арабского языка с целью усиления художественной выразительности и смысловой глубины газели.

Ключевые слова: возлюбленный, пожертвовать, забот, разбитый кувшин, безумец, начало, праведник, возглас...

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the ghazal entitled “Ashraquat min...” by the great thinker and sultan of the ghazal tradition, Alisher Navoi, focusing on the distinctive features of the use of the Arabic language in this work. The ghazal belongs to the Orifona (descriptive-philosophical) type, in which the poet’s philosophical and Sufi views are deeply and comprehensively expressed. The study demonstrates that Alisher Navoi skillfully employed elements of the Arabic language to enhance the artistic expressiveness and semantic depth of the ghazal.

Keywords: beloved, gift, worldly, broken jug, passionate lover, beginning, devout, exclamation...

Alisher Navoiy XV asr Sharq uyg‘onish davrining eng buyuk vakillaridan biri sifatida keng e‘tirof etilgan. Uning adabiy merosi nafaqat hajmi jihatidan, balki janrlar va badiiy mahorati bilan ham hayrat uyg‘otadi. Ayniqsa, g‘azal janridagi ijodi ulkan

ahamiyatga ega bo'lib, Maqsud Shayxzoda uni "G'azal mulking sultoni" deb atash bilan mutloq haqli ekanini ko'rsatadi. Navoiyning g'azallari nafaqat mavzu va ohangining rang-barangligi, balki turli vaznlar va uslublardagi betakrorligi bilan ajralib turadi, bu esa uning badiiy iste'dodini yanada yorqin namoyon qiladi. 1491–92-yildan e'tiboran shoir barcha turkiy she'rlarini yig'ib, to'rt devondan iborat «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini», u «Chor devon» nomi bilan ham mashhur) majmuasini tuzishga kirishdi. Bu keng ko'lamli va jiddiy ish 1498–1499-yillargacha davom ettirildi. «Xazoyin-ul-maoniy»dagi har bir devonga alohida-alohida nom qo'yilgan:

- 1.«G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik g'aroyibliklari»).
- 2.«Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirliklari»).
- 3.«Badoye' ul-vasat» («O'rta yosh yangiliklari»).
- 4.«Favoyid ul-kibar» («Qarilik foydalari» yoki «Qarilik xulo salari»).

Keyin shoir umrning bu to'rt davrini yoshga mos tarzda taqsimlab chiqadi:

- bolalik davri (tufuliyat avoni)
- 7–8 yoshdan 20 yoshgacha;– yigitlik davri (shabob zamoni)
- 20 yoshdan 35 yoshgacha;– o'rta yasharlik davri (kuhulat ayyomi)
- 35 yoshdan 45 yosh gacha;– qarilik davri (fusulning qishi) – 45 yoshdan 60 yoshgacha.

Ammo bu tartibga qarab, shu to'rt devonga shoirning aynan shu yoshlarida bitgan asarlari kiritilgan, deb tushunmaslik kerak. Bu yerda ramziylik ham bor.

«Xazoyin ul-maoniy» Navoiy umum merosining salmoqli qismini tashkil etadi. Undan jami 16 lirik janrga oid asarlar o'rin olgan. Majmuada g'azal eng asosiy janr hisoblanadi. Har bir devonga bir xil miqdorda, ya'ni aynan 650 tadan, jami 2 ming 600 ta g'azal kiritilgan. "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") she'rlar to'plami aynan shu g'azal "*Ashraquat min...*" bilan boshlanadi. An'anaga ko'ra, g'azal matla'si (birinchi bayti)ning birinchi misrasi arab tilida yozilgan. Shu arabcha jumlaning mazmuni keyingi baytlarda davom ettiriladi va shoirning nazarda tutgan ma'nolari bosqichma-bosqich ravshanlashib, turli tashbeh-ravishlar, timsollar va istilohlar orqali o'quvchiga yetkaziladi. Bu g'azal faqat o'zida tugab qolmay, undan keyingi g'azallar uchun ma'lum bir dasturiy xususiyatga ega hisoblanadi. Ya'ni, unda buyuk shoirning dunyoqarashining asosiy yo'nalishi aks etgan bo'lib, bu mavzular keyingi g'azallarda davom ettiriladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur g'azal mazmunini to'g'ri tushungan kishi Navoiyning devonlaridagi boshqa g'azallarni ham anglab yetish imkoniga ega bo'ladi va shoirning idealari olamiga qadam qo'yadi. G'azalda olamning ilohiy mohiyati va insonning uni anglashidan kelib chiqadigan ruhiy tajriba, zavq va qalb shodligi tasvirlangan. Cheksiz bu olam Yagona Allohning ta'jalliy nuri orqali doimiy ravishda nurafshon va jozibali bo'lib, barcha mavjudotlarni muvofiqlik va barqarorlikda birlashtiradi. Ushbu nur Quyosh timsoli orqali beqiyos ne'mat sifatida namoyon bo'lib, har kuni porlab, barcha jonzorlar, xususan, inson qalbini ham shodlik

bilan to'ldiradi. Shu bilan birga, Quyosh faqat timsol sifatida ishlatiladi; haqiqiy ilohiy Haqiqat bundan yanada ulkan bo'lib, barcha mavjudotlarni, jumladan Quyoshni ham o'z ichiga oladi. Bu beintihon qudratni faqat oriʼf va piri komil insonlar to'liq anglay oladi. Natijada, ular qalblarini ma'rifat nuri bilan to'ldirib, ushbu nurni boshqa izlaganlarga yetkazadi va ularni yor aksi orqali tanishtiradilar.

Ashraʼat min aksi shamsil-ka'si anvorul hido,

Yor aksin mayda ko'r deb, jomdin chiqti sado.

(Mazmuni: Quyosh kosasidan hidoyat nurlari sochildi, jomdan "Yorning aksini mayda ko'r" degan ovoz chiqdi.)

Baytning zohiriy ma'nosini tushunish uchun, avvalo, mashriqdan endigina ko'tarilayotgan Quyosh obrazini tasavvur qilish zarur. Yarmi ko'tarilgan Quyosh yarim to'la kosaga o'xshab tasvirlangan bo'lib, bu kosa oddiy emas, balki hidoyat nurlari bilan to'lgan jom sifatida ko'riladi. Bu yerda jom – Quyoshni, may esa uning nurlarini ifodalaydi. Quyosh dunyoni yoritgani sari haqiqiy Yor jamoli namoyon bo'ladi. Shoir Quyosh chiqqandan so'ng Yorning go'zalligi yanada ravshanlashishini ta'kidlaydi va o'quvchini undan bahramand bo'lishga chorlaydi. Shunday qilib, Quyosh jomida yorishgan ma'rifat nurlari olamni yoritadi va Yorning aksini to'laligicha ko'rsatadi. Baytning botiniy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bizningcha, shoir baytning ilk so'zi "Ashraʼat" bilan Qur'oni Karimning Zumor surasining 69-oyatiga ishora qilgan. Mazkur oyat shunday:

«Yer (mahshar joyi) Parvardigorining nuri bilan yoritiladi; kitob (a'molnomalar) qo'yiladi; payg'ambarlar va guvohlar (farishtalar) keltiriladi va ularning o'rtasida zulm qilinmagan holda haqqoniy hukm qilinadi».

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,

Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

Ey soqiy, agar insonning qalb oynasiga Xudodan boshqa tashvishlar, moddiy dunyo g'am-u anduhlari kirib qolgan bo'lsa, bu kir va zangni faqat ilohiy ta'jalliy nur, ya'ni ushbu nurning zavqi bilan yuvish mumkin. Ya'ni, bu dunyoning ko'rguliklari ko'nglingni g'amga botirsa, vahdat mayidan yaxshiroq may yo'qki, uni tarqata oladigan. Bu o'rinda vahdat mayi– ollohning visoliga yetkazuvchi ishq tarzida ifodalangan. Soqiy – aslida may quyuvchi, tasavvufiy istiloh sifatida – piri komil (ustoz) ma'nosini anglatadi.

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,

Jom o'lur getinamo Jamshid, ani ichkan gado.

Bu nur, bu may shunchalik mo'jizaviyki, unga bir siniq sopol kosa bo'lagi – ya'ni faqir kishining qalbi ham idish bo'lishi mumkin. Shunda jom butun olamni namoyon etadigan holga keladi, va ushbu jomdan may ichgan, ya'ni ta'jalliy nuridan bahra olgan odam, hatto gadoyi bo'lsa ham, o'zini podshoday his qiladi. Bunda quyidagi rivoyatga ishora bor: deyishlaricha, Shoh Jamshid mayni ixtiro qilgach,

donishmandlar yordamida shunday bir jom yasagan ekanki, agar unga may to'ldirsalar, butun olam va uning voqea-hodisalarini aks ettirar ekan. Jamshid butun olamni shu jomda ko'rib turar ekan. Alisher Navoiy ushbu rivoyatlarga ishora qilib, birinchidan, orif inson qalbi ham olam va ilohiy ta'jalliyni ko'rsatadigan ko'zgudir, chunki u Ishq, ilohiy sirlar va hikmatlarga to'la degan g'oyani ifodalaydi. Ikkinchidan, darvishning siniq ko'ngli ("sing'an sopol") Jamshid kabi shohlardan ham e'tiborli va qimmatli bo'lib, aynan shu "siniq ko'ngillar" ilohiy nurni aks ettirib, dunyoni namoyon eta oladi, degan fikrni bildiradi.

Jom-u may gar bo'yladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur,

Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Agar jom va may shunday mo'jizaviy xususiyatga ega bo'lsa, unda bu jomni saqlash va unga e'tibor berish uchun yuz olamni bag'ishlash, shuningdek, bu maydan bahramand bo'lish uchun ming jonni fido qilish ham ma'nan va ruhiy jihatdan arziydi. Bu fikrda Navoiy inson qalbi va ilohiy tajalliy nurining qadriyatini ta'kidlash bilan birga, haqiqiy ma'rifat va ruhiy zavqga erishish yo'lida insonning o'zini bag'ishlashi zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, jom va may timsoli nafaqat moddiy, balki ma'naviy olamni ham aks ettiruvchi vosita sifatida qadrlanadi, ularning ahamiyati insonning ma'rifiy va ruhiy tajribasida eng yuqori o'ringa ega ekanligi ta'kidlanadi.

Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,

Jomi may tutsang meni devonadin qil iptido.

Ey pir, so'zini tilga oluvchi, pir majlisida hushyorlar ongini yo'qotib, behudu va rasvo bo'lish uchun yig'ilgan ekan. Agar sen pirning mujdasini, so'zini yetkazmoqchi bo'lsang, buni men, devonadan, boshlagin. G'azalning beshinchi baytida lirik qahramon dayr aro – oqil, dono kamolotga yetgan kishilarning ilohiyot, Ishq haqida majlis quradigan, suhbatlashadigan joyga kirib, mug'bachaga – may tashuvchi bolaga murojaat qilib, jomda may tutsa, eng avvalo unga uzatishini so'raydi.

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,

Jom-u jam lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Shunda ilohiy nur – may orqali qalb jomi yorqinlashib, maqsadli chehra, ya'ni Allohning jamoli to'liq namoyon bo'ladi. Shu zahoti inson ongida Allohdan boshqa barcha narsalar yo'qoladi, ularning ahamiyati yo'qolib, butun e'tibor va qalb to'liq ilohiy Haqiqatga qaratiladi. Bu holat ruhiy tajriba sifatida insonning ichki olamida ma'rifat nurining to'la yorqinligini aks ettiradi va shaxsni Allohning mutlaq qudrati va go'zalligi bilan uyg'unlashtiradi.

Sen gumon qilg'andin o'zga jom-u may mavjud erur,

Bilmayin naf etma bu mayxona ahlin, zohido.

Zohiddan (din peshvosidan) lirik qahramonning bir o'tinchi bor, bu baytlarni o'qib mayxona ahlini- oqil, dono kamolotga yetgan kishilarni ilohiyot, Ishq haqida majlis quradigan, suhbatlashadigan insonlarni ayblab o'ltirma, sen o'ylayotgan haqiqiy

may va jomdan ham tashqari bu soʻzlarning maʼnosi bor. Ollohnning ishq va uni oʻziga jo qilib olmoqchi boʻlgan qalb haqida soʻzlayapman degandek goʻyo.

Tashnalab oʻlma, Navoiy chun azal soqiysidin,

“Ishrabu, yo ayyuhal-atshon” kelur har dam nido.

Ey Navoiy, azaliy Zot – olam Parvardigorining taʼjalliy nuridan bahra olmasang boʻlmaydi, chunki U oʻz kalomida: “Iching, ey tashnalar!” deb aytgan. Gʻazal maqtaʼsida ishlatilgan “Ishrabu” soʻzi ham Qurʼoni Karimdan olingan (Baqara, 60) boʻlib, birgina “Ichinglar” soʻzi orqali Alisher Navoiy tasavvuf olamiga yanada mazmun berdi.

Xulosa. Alisher Navoiy “Ashraqt min...” gʻazalini turkiy va arab tili orqali ham tasavvuf, ham diniy ilm bilan boyitgan eng nodir gʻazal hisoblanadi. Navoiy bu gʻazal orqali maʼshuqning ishq sahrosidagi holatini yaqqol tasvirlab, uni oʻz isteʼdodi bilan bezagan. Bundan tashqari, Navoiy bu gʻazal bilan ishq yoliga kirmoqchi boʻlgan yoki endigina kirgan ishq sarmastlariga bir maʼnoda eslatma bergandek edi, goʻyo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Olim, S.Ahmedov. Adabiyot. Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2019. 351 b.
2. Qodirova B. Orifona(falsafiy) gʻazallar sharhi. “Ashraqt min...” gʻazali. International Journal of Scientific Researchers, 2025.
3. Namozova F. H. Alisher Navoiyning “ashraqt min...” gʻazalining tasavvufiy talqini. Xalqaro Ilmiy Konferensiya, 2022
4. www.hidoyat.uz
5. www.kh-davron.uz